



TA'LIM VA AQLIY TARAQQIYOT

**Turayev Nodir
Abdusalamov Safar**

Chirchiq davlat pedagogika universiteti
Gumanitar fanlar fakulteti
O'zbek tili va adabiyot (kechki) yo'nalishi
1- bosqich talabalari.

Email: abdisolomovsafar@gmail.com
nodirtorayev04@gmail.com

Ozodqulov Olimjon Bahodir o'g'li

Ilmiy rahbar:

Chirchiq davlat pedagogika universiteti
Psixologiya kafedrası o'qituvchisi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15591936>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 25-May 2025 yil

Ma'qullandi: 28-May 2025 yil

Nashr qilindi: 31-May 2025 yil

KEY WORDS

ta'lim, aqliy taraqqiyot, bilim jamiyati, tanqidiy fikrlash, innovatsion metodlar.

ABSTRACT

Ta'lim insonning aqliy, ma'naviy va ijtimoiy taraqqiyotining asosiy omilidir. U nafaqat bilimlar bilan ta'minlaydi, balki tanqidiy fikrlash, ijodkorlik va yangicha yechimlarni topish qobiliyatini rivojlantiradi. Mazkur maqolada ta'limning aqliy taraqqiyotga ta'siri, zamonaviy ta'lim metodlari va kelajakda bilim jamiyatida ro'y beradigan o'zgarishlar haqida tahlil qilinadi.

Ta'lim inson hayotining eng muhim jarayonlaridan biri bo'lib, u nafaqat bilim beradi, balki shaxsning aqliy, ijtimoiy va ma'naviy jihatdan rivojlanishiga ham ta'sir ko'rsatadi. Aqliy taraqqiyot esa ta'lim bilan chambarchas bog'liq bo'lib, insonning fikrlash, tushunish, xotira, diqqat va boshqa kognitiv qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan.

Ta'lim talabaga muayyan ko'lamda va darajada bilim, ko'nikma va malaka berishga, shuningdek shaxsning aqliy faoliyatini rivojlantirishga qartilgan murakkab jarayon hisoblanadi. Ta'lim ikki tomonlama xarakterga ega bo'lib, o'qituvchi (ta'lim beradi) va talaba (ta'lim oladi) larning hamkorlikdagi faoliyati natijasida amalga oshiriladi. Ta'limning muvaffaqiyati, birinchidan o'qituvchi bilan talabalar jamoasi hamkorligidagi faoliyatining faol tarzda o'tishiga, ikkinchidan, nimalardan saboq berishga, Kim tomonidan tashkil qilishga, uni qanday metodlar Bilan amalga oshirishga va kimlarni o'qitishga ko'p jihatdan bog'liqdir.

Oliy ta'lim tizimida o'qish o'qituvchi rahbarligidagi o'qitish jarayonining bir tomonini xarakterlaydi, xolos. O'qishdagi muvaffaqiyatni ta'minlovchi asosiy omil talabaning mustaqilligidir. Mustaqillik ta'limning obyektiv o'quv material, o'qitish sur'ati, metodi, darsliklar va boshqalar va subyektiv talabaning o'quv motivi, qiziqishi, mayli kabilar sabablariga ta'sir qiladi. Bu o'rinda ta'sir o'tkazish, ta'sirlanish, o'z-o'zini qo'lga olish, o'z-o'ziga buyruq berish holatlari muhim rol o'ynaydi.

Pedagogik psixologiyada ta'lim o'qitish, o'qish o'rganish bilan bir qatorda o'zlashtirish tushunchasi ham qo'llaniladi. Oliy maktab amaliyotida o'qish va o'qitish oldiga qoyiladigan asosiy vazifa bilimlarni, ko'nikma va malakalarni o'zlashtirishdan ibratdir. O'zlashtirish jarayoni inson faoliyatining ajralmas qismi bo'lib pedagogik psixologik ta'sirlar talabalar ongida qay yo'sinda tasavvur obrazlari, fikr va mulohazalar bo'layotganligi, ularning amaliy

faoliyatlarida qanday shaklda aks etayotganligi, psixik o'sishga, ilmiy dunyoqarash va e'tiqodlarni egallashga yordam berayotganligini aks ettiruvchi murakkab jarayon hisoblanadi. Ta'lim jarayonida kuzatuvchanlik va tafakkur tarkib toptirish. Kuzatuvchanlikni talabaarda shakllantirish uchun o'qituvchi ular oldiga aniq va muayyan maqsad qoyishni: yaxlit predmetdan bo'lak va qismlarni ajratishni, obyektlarni o'zaro taqqoslashni, muhim va nomuhim belgilarni farqlashni o'rgatish lozim. Kuzatish yordamida o'rganilgan narsa va hodisalar talabalar tomonidan rasmlar, chizmalar, loyihalar, esdaliklar, mulohazalar tarzida qayd qilib boriladi. Faol maqsadga yo'naltirilgan uzluksiz kuzatish zamirida ularning kuzatuvchanlik xususiyati tarkib topadi va bilimlarni puxta, tez va aniq o'zlashtirish uchun xizmat qiladi. Bilimlarni o'zlashtirishning muhim tomonlaridan biri o'quv materialini tushunishdan iborat bo'lib, ularning o'zaro bog'liqligi, predmetlararo aloqasi, muayyan sohalarga va tizimlarga taalluqligini anglash bosqichiga ko'tariladi. Talaba o'rganilayotgan materiallarni o'tilgan mavzular bilan murakkab ichki bog'lanishga ega ekanligini, qonuniyat ta'rifini, sabab-oqibat munosabatlari kelib chiqishini tushunish imkoniyatiga ega bo'lmog'i zarur. Bu narsalarni oddiy idrok qilish yoki kuzatish orqali anglab bo'lmaydi.

Xulosa

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, Ta'lim inson hayotining eng muhim omillaridan biri bo'lib, u nafaqat bilimlar bazasini shakllantirishda, balki shaxsning aqliy, ijtimoiy va ma'naviy jihatdan kamol topishida hal qiluvchi rol o'ynaydi. Aqliy taraqqiyot esa ta'lim jarayonining tabiiy natijasi sifatida namoyon bo'lib, insonning mantiqiy fikrlash, kreativ yechimlar topish, murakkab muammolarni tahlil qilish qobiliyatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Zamonaviy dunyoda ta'lim tizimlari an'anaviy usullardan zamonaviy, innovatsion metodlarga o'tish jarayonida. Bu o'z navbatida aqliy taraqqiyotning yangi bosqichlarini belgilab bermoqda. Sun'iy intellekt, virtual reallik, adaptiv o'quv platformalari kabi texnologik yutuqlar ta'lim sifatini oshirish bilan birga, individual yondashuv asosida har bir shaxsning kognitiv qobiliyatlarini maksimal darajada rivojlantirish imkoniyatini yaratmoqda. Ta'lim va aqliy taraqqiyot o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik insoniyat taraqqiyotining asosiy yo'nalishlaridan birini belgilab beradi. Rivojlangan mamlakatlarning tajribasini o'rganish, milliy ta'lim tizimimizni yangi pedagogik texnologiyalar bilan boyitish, shu bilan birga ma'naviy-axloqiy qadriyatlarni saqlab qolish orqali biz yangi avlodning intellektual salohiyatini yuqori darajada shakllantirishimiz mumkin

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Vigotskiy L.S. Pedagogicheskaya psixologiya. M.: 1991. S. 374-410.
2. Ivanov P.I. Talimning psixologik asoslari. T.: 1961. 21-85 betlar.
3. Kruteskiy V.A. Pedagogik psixologiya asoslari. T.: 1976. 182-207 betlar.
4. Piaget, J. (1950). *The Psychology of Intelligence.